

RAQAMLI IQTISODIYOT

Nigmatjon Anvarov Aziz o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari kafedrası

Annotatsiya: Maqola bugungi kundagi Respublikamiz oldida turgan dolzarb masalalarni yechimini topishga qaratilgan “raqamli tadbirkorlikni” rivojlantirish bo'yicha konseptual yondashuvlarni, hamda xorij tajribasini o'rganish va uni Respublikamizga mos jihatlaridan foydalanishning yangi yo'nalishlarini taklif etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasida “raqamli tadbirkorlikni” rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli tadbirkorlik, innovatsiya, virtual muhit, raqamli texnologiyalar

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot - bu siyosiy- iqtisodiy, ilmiy-ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy munosabatlardagi aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash yordamida amalga oshiruvchi yangi tizim bo'lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida “raqamli tadbirkorlik” alohida ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'kidlash zarurki, jahonda ko'zga ko'ringan xorijlik iqtisodchi olimlardan – A. Bxayd, Dj.K. Gel- breyt, U. Zalman, I.M. Kirsner, L. fon Mizes, F. Nayt, Dj. Stensill, F. Xayek, Y. Shumpeter, K.V. Ayxel, M.P. Voynarenko, G.K. Ginsa, P.Yu. Yerofo- yeva, M.Z. Ilchikova¹, G.B. Kleyner, Ye.Ye. Kuzmina, L.P. Kuzmina, G.S. Merzlikina, A.F. Moskovseva, Ye.F. Cheberko L.S. Shaxovskaya va boshqalar, O'zbekistonda A.Abduqaniev, Q.Abduraxmonov, X.Abulqosimov, Z.Xudoyberdiev, Z.Tolametova kabi olimlar tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini katta e'tibor bilan o'rganganlar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli tadbirkorlik masalalari V.Yu. Pestov, B.G. Preobrajenskiy, N.A. Serebryakova, T.O. Tolstix kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Raqamli iqtisodiyotni asosiy vazifalari²:

-raqamli biznes va tadbirkorlikni yaratish;

-korxonalarni barqaror rivojlantirishga yordam beruvchi investitsiyalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish;

-innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi malakali kadrlar bilan ta'minlash.

Raqamli iqtisodiyot kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida alohida ahamiyatga egadir.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz zarurki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir;

texnologik va boshqaruvni egiluvchanligini ta'minlay olish.

Hozirgi raqamli iqtisodiyot asrida biznesni yuritish qoidalari ham o'zgarib borayotganligini kuzatish mumkin.

An'anaviy iqtisodiyot sharoitida xaridorlar ishlab chiqaruvchi tomonidan qanday tovar yoki xizmatlar taklif etilsa shunga qanoat qilgan bo'lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida esa iste'molchi bozorga o'z xohishini, takliflarini bayon etadi. Raqamli transformatsiyalar biznesmenga zamonaviy bozorga bog'lanish uchun o'z biznesini yaxshilashga majbur etadi. Raqamli iqtisodiyotda xarajatlarni qisqarishi natijasida ko'rsatilayotgan xizmatlarning qiymati arzonlashib boradi, daro- mad topishning yangi yo'nalishlarini keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish natijasida, tovar va xizmat- lar global bozorlarga tezda taklif etiladi, mazkur tovar va xizmatlar xususida esa dunyo- ning istalgan hududiga ma'lumotlar taqdim

¹ Erenberg R. Dj., Smit R.S. Sovremennaya ekonomika truda. Teoriya i gosudarstvennaya politika. – M.: MGU, 2016.

² Tolametova Z.A. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnolo- giya”, 2017. 400 b.

etiladi. Raqamli tadbirkorlik yangi biznes modellarni ishlab chiqilishini, yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatlarini yaratadi.

Raqamli tadbirkorlar ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni kiritadilar va avtomatlashtirish jarayonini amalga oshiradilar. Raqamlashtirish va globallashtirish bir birlari bilan uzviy bog'liqdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkor ishlab chiqarishni yangidan yangi kombinatsiyalarni yaratadi, o'z faoliyatiga turli xildagi yangi texnologiyalarni tatbiq etadi. Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida tadbirkorlikni yangi ko'rinishlari, ya'ni raqamli tadbirkorlik, innovatsion tadbirkorlik, ventchur tadbirkorligi kabilar rivojlanmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni, zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish iqtisodiyotning yangi bilimga yo'naltirilgan tarmoqlarini paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Iqtisodiyotning innovatsion sektorini, shuningdek "raqamli tadbirkorlikni" shakllanishi va rivojlanishi ishlab chiqaruvchilarni raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini yaratadi³.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida "raqamli tadbirkorlik" aloxida ahamiyatga ega bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyatida mukammal innovatsion qararlarni qabul qilish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish jarayonida "raqamli tadbirkorlikni" rivojlantirish innovatsion jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Inno- vatsiya –yangilik kiritish ularni turli soha, tarmoqlarda qo'llashdir.

Mamlakatni jadal innovatsion rivojlantirish uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlariga ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijalarini va nou-xau ishlanmalarni keng joriy etish, shuningdek ilmiy muassasalar va real iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari o'rtasida hamkorlikni o'rnatish zarurdir.

XULOSA VA MUNOZARA

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini tarmoqlarini, jumladan tadbirkorlik faoliyatini innovatsion usulda rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan qo'yilgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakatimiz fuqarolarining turmush farovonligini oshirish, kambag'allikni kamaytirish, iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muhim shartidir.

Bugungi kunda dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda aholi daromadlarining o'sishi birinchi navbatda tadbirkorlikda innovatsion jarayonlarning to'g'ri tashkil etilishi hamda "raqamli tadbirkorlikni" doimiy ravishda takomillashtirib borilayotgani bilan bog'liqdir.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida Respublikamiz oldida turgan muhim vazifalardan biri jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni keng yo'lga qo'yishdir.

Bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri tadbirkorlar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali, narxlarni pasaytirish va jahon bozorida raqobatbardosh, eksportbop sifatlil mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Xalqaro tajribani o'rgangan holda monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yanada keng yo'l ochish, "raqamli tadbirkorlikni" rivojlantirish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, 2016. 56-b.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekiston, 2017. 488-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respu- blikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947- son farmoni.
4. Erenberg R. Dj., Smit R.S. Sovremennaya ekonomika truda. Teoriya i gosudarstvennaya politika. – M.: MGU, 2016.

³ Tolametova Z.A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida mehnat bozorini rivoj- lanish yo'nalishlari 2014. Toshkent . "Iqtisodiyot" 305 b

5. Tolametova Z.A. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida mehnat bozorini rivojlanish yo'nalishlari 2014. Toshkent . "Iqtisodiyot" 305 b
6. Tolametova Z.A. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2017. 400 b.